

O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

"GLOBAL MAKONDA TALABALARNING MA’NAVIY, MA’RIFIY VA AXLOQIY DUNYOQARASHI: TAHLILLAR, TAKLIFLAR, TAVSIYALAR”

mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI TO’PLAMI

Namangan 2025-yil, 22-aprel

www.namspi.uz

Bosh muharrir: *Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov*

Mas’ul muharrir: *Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor M.R.Qodirxonov*

Mas’ul muharrir o‘rinbosari: *Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedogogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i J.A.Yuldashev*

T A H R I R H A Y ’ A T I

Isoqboyev Alisher Ahmadjonovich	-	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Yuldashev Javoxir Abdurahim o‘g‘li	-	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Mutalov Saidakbar Xamidullo o‘g‘li	-	Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Botirova Sevara Ma’murovna	-	Gumanitar fanlar kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Nabijonov Murodjon To‘lqinjon o‘g‘li	-	Yoshlar bilan ishlash, ma’naviyat va ma’rifat bo‘limi boshlig‘i
Tursunov Ramziddin Abdixalil o‘g‘li	-	Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i
O‘rmonjonov Azizbek Muhammadjon o‘g‘li	-	Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi Ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi

Texnik muharrir: A.O‘rmonjonov, R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko‘chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, ***Faks: (***0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

“Global makonda talabalarning ma’naviy, ma’rifiy va axloqiy dunyoqarashi: tahlillar, takliflar, tavsiyalar” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman Namangan davlat pedagogika instituti rektorining 2025-yil 21-apreldagi 65-U-sonli buyrug’iga muvofiq o’tkazildi hamda anjuman materiallari to’plami anjuman Tashkiliy qo’mitasining 2025-yil 5-maydagi 2-sonli yig’ilishida ***(Bayonnoma №2)*** *muhokama qilinib, ilmiy to’plam sifatida nashr etish uchun tavsiya etilgan.*

NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI 2025

UDK: 1:37.01

TA’LIM MODERNIZATSIYASI TUSHUNCHASINING FALSAFIY GENEZISI: KLASSIK VA ZAMONAVIY TALQINLAR

Jurayev Alisher Tulqinboyevich
University of Business and Science katta o‘qituvchisi, falsafa fanlari doktori (PhD)
Email: alisherumida1987@gmail.com
Tel: +998 99 270 00 20

Annotatsiya: *mazkur maqolada “ta’lim modernizatsiyasi” tushunchasining falsafiy genezisi va uning klassik hamda zamonaviy nazariy talqinlari tarixiy-falsafiy va qiyosiy-tipologik tahlil asosida yoritilgan. Tushunchaning etimologik va kategorial mazmuni “islohot”, “innovatsiya” va “transformatsiya” tushunchalaridan farqlangan holda aniqlashtirilgan. Ma’rifatchilik-dialektik, klassik (universalistik), tanqidiy-reproduktiv, “ko‘p modernlik”, refleksiv-kommunikativ hamda milliy-tarixiy talqinlarning mohiyati, kuchli tomonlari va cheklovlari ko‘rsatib berilgan. Birlamchi va ikkilamchi, “yuqoridan” va “quyidan” kechuvchi modernizatsiya turlari, ta’lim modernizatsiyasining qadriyat-maqsad, institutsional, mazmun-texnologik va subyekt darajalari, shuningdek, etatistik va polisubyekt modellar farqlangan. Jadidlar ta’lim tajribasi davlat va jamiyat tashabbuslari uyg‘unligiga asoslangan modernizatsiyaning milliy shakli sifatida baholangan. Tahlil natijasida ta’lim modernizatsiyasining muallifona ta’rifi ishlab chiqilgan bo‘lib, u modernizatsiyani ko‘p subyektli, uzluksiz va global hamda milliy omillar uyg‘unligiga tayanuvchi yaxlit ijtimoiy jarayon sifatida talqin etadi. Bu O‘zbekistonda ta’limda nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklikni falsafiy jihatdan asoslash uchun nazariy zamin yaratadi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim modernizatsiyasi, falsafiy genezis, ma’rifatchilik, klassik modernizatsiya nazariyasi, ikkilamchi modernizatsiya, ko‘p modernlik, refleksiv modernizatsiya, jadidchilik, polisubyekt model, umumiy ne’mat.*

ФИЛОСОФСКИЙ ГЕНЕЗИС ПОНЯТИЯ МОДЕРНИЗАЦИИ ОБРАЗОВАНИЯ: КЛАССИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ

Аннотация: *в статье на основе историко-философского и сравнительно-типологического анализа раскрываются философский генезис понятия «модернизация образования» и его классические и современные теоретические интерпретации. Этимологическое и категориальное содержание понятия уточнено путём его разграничения с понятиями «реформа», «инновация» и «трансформация». Показаны сущность, сильные стороны и ограничения просветительско-диалектической, классической (универсалистской), критико-репродуктивной интерпретаций, концепции «множественных модерностей», рефлексивно-коммуникативной и национально-исторической интерпретаций. Разграничены первичная и вторичная модернизация, модернизация «сверху» и «снизу», ценностно-целевой, институциональный, содержательно-технологический и субъектный уровни модернизации образования, а также этатистская и полисубъектная модели. Опыт джадидских школ оценён как национальная форма модернизации, основанная на сочетании инициатив государства и общества. В результате анализа разработано авторское определение модернизации образования как целостного, многосубъектного и непрерывного социального процесса, опирающегося на сочетание глобальных и национальных факторов. Это создаёт теоретическую основу для философского обоснования негосударственного сектора и государственно-частного партнёрства в образовании Узбекистана.*

Ключевые слова: *модернизация образования, философский генезис, Просвещение, классическая теория модернизации, вторичная модернизация, множественные модерности, рефлексивная модернизация, джадидизм, полисубъектная модель, общее благо.*

THE PHILOSOPHICAL GENESIS OF THE CONCEPT OF EDUCATION MODERNIZATION: CLASSICAL AND CONTEMPORARY INTERPRETATIONS

Abstract: *this article examines, through historical-philosophical and comparative-typological analysis, the philosophical genesis of the concept of “education modernization” and its classical and contemporary theoretical interpretations. The etymological and categorial content of the concept is clarified by distinguishing it from the notions of “reform”, “innovation” and “transformation”. The*

essence, strengths and limitations of the Enlightenment-dialectical, classical (universalist), critical-reproductive, “multiple modernities”, reflexive-communicative and national-historical interpretations are shown. The article distinguishes primary and secondary modernization, modernization “from above” and “from below”, the value-goal, institutional, content-technological and subject levels of education modernization, as well as the etatist and polysubject models. The experience of the Jadid schools is assessed as a national form of modernization based on the combination of state and societal initiatives. As a result, the author’s definition of education modernization is developed, interpreting it as an integral, multi-actor and continuous social process grounded in the harmony of global and national factors. This provides a theoretical basis for the philosophical justification of the non-state sector and public-private partnership in education in Uzbekistan.

Keywords: *education modernization, philosophical genesis, Enlightenment, classical modernization theory, secondary modernization, multiple modernities, reflexive modernization, Jadidism, polysubject model, common good.*

KIRISH

Jamiyatning sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarilishi bilim, qadriyat va malakalarni avloddan avlodga yetkazuvchi tizim — ta’limning yangilanishisiz kechmaydi. Shu bois “ta’lim modernizatsiyasi” bugungi ijtimoiy-gumanitar bilimlarda eng faol ishlatiladigan, biroq ayni paytda eng ko‘p ma’noli kategoriyalardan biriga aylangan. Ilmiy matnlarda u ko‘pincha “islohot”, “innovatsion rivojlanish” yoki “transformatsiya” so‘zlari bilan bir qatorda, ba’zan esa ularning sinonimi sifatida qo‘llanadi. Tushunchaning bunday noaniqligi uning falsafiy ildizlarini va nazariy talqinlari evolyutsiyasini maxsus tahlil qilishni taqozo etadi.

Respublikamizda ta’lim tizimini modernizatsiyalash va transformatsiyalashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari N.S.Jumaniyazova, A.A.Egamberdiyev va boshqa tadqiqotchilar ishlarida yoritilgan (1; 2). Biroq ularda modernizatsiya asosan davlat siyosati va ta’lim muassasalari ichidagi o‘zgarishlar orqali tahlil qilingan, uning subyektlar tarkibi, xususan, nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklikning ushbu jarayondagi o‘rni yaxlit konsepsiya sifatida maxsus ijtimoiy-falsafiy tadqiqot predmetiga aylanmagan. Shuningdek, tushunchaning antik va Sharq tafakkuridan tortib refleksiv modernizatsiya konsepsiyalarigacha bo‘lgan genezisi yagona tipologik tizimda umumlashtirilmagan.

Mazkur maqolaning maqsadi — ta’lim modernizatsiyasi tushunchasining falsafiy genezisini kuzatish, uning klassik va zamonaviy talqinlarini tipologik jihatdan tasniflab, har birining mohiyati, imkoniyati va cheklovlarini aniqlash hamda shu asosda tushunchaning muallifona ta’rifini asoslashdan iborat.

Masalaning dolzarbligi O‘zbekistondagi ta’lim islohotlari bilan ham belgilanadi. 2020-yilda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-son Qonun (3) va 2019–2022-yillardagi konseptual hujjatlarda ta’lim modernizatsiyasi ilk bor uzoq muddatli strategik ufq doirasidagi yaxlit jarayon sifatida belgilandi. Shu bilan birga, sovet davridan meros qolgan davlat monopoliyasining inersiyasi hamon sezilarli: 2017-yilgi Prezident qaroriga berilgan sharhga ko‘ra, o‘sha paytda litsenziyaga ega nodavlat umumta’lim maktablari 43 ta, ya’ni jami 9680 ta maktabning 0,4 foizini tashkil etgan, holbuki Germaniyada bu ko‘rsatkich 12, Fransiyada 17, AQShda 18, Buyuk Britaniyada 20 foizga teng (4). Bunday sharoitda modernizatsiyani qanday tushunish — uni faqat davlat “yuqoridan” amalga oshiradigan islohot deb bilish yoki ko‘p subyektli jarayon sifatida ko‘rish — islohotlar strategiyasining o‘zini belgilaydi.

Maqola quyidagicha tuzilgan: dastlab tushunchaning falsafiy genezisi va unga oid nazariy adabiyotlar tarixiy izchillikda ko‘rib chiqiladi; so‘ngra tadqiqot metodlari tavsiflanadi; keyin modernizatsiya talqinlarining muallifona tipologiyasi, modernizatsiya turlari, darajalari va modellari tahlil qilinib, ta’lim modernizatsiyasining ta’rifi asoslanadi; yakunda xulosa va tavsiyalar beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Etimologik jihatdan “modernizatsiya” atamasi lotincha modo (“hozir”) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, undan hosil bo‘lgan moderne “yangi”, “zamonaviy”, moderniser esa “zamon talablariga moslab yangilash” ma’nolarini anglatadi; XX asr o‘rtalarida “modernity” tushunchasi “sivilizatsiyalashgan jamiyat” holatini ifodalovchi kategoriyaga aylangan (1, 13-b.). Bizningcha, so‘zning dastlabki ma’nosidayoq ikki qatlam bor: vaqt qatlami — “eski”ga “yangi”ning qarama-qarshi qo‘yilishi, va me’yoriy qatlam — yangining ma’lum bir namunaga intilish sifatidagi afzalligi. Aynan ikkinchi qatlam keyinchalik

modernizatsiya nazariyalarining markaziy savoliga aylandi: zamonaviylik namunasini kim belgilaydi va u barcha jamiyatlar uchun yagonami?

Ta’limni jamiyatni takomillashtirish vositasi sifatida ko‘rish an’anasi antik davrdan boshlanadi: Aflotun ta’limni adolatli davlatning tayanchi, Arastu esa uni barcha fuqarolar uchun yagona bo‘lishi lozim bo‘lgan umumiy ish sifatida talqin etgan. Antik tafakkurda ta’lim mazmuni “paydeyya” tushunchasi bilan ifodalangan: N.S.Jumaniyazova ta’kidlaganidek, Aflotunda u kishining ruhan va jisman kamolotga erishish yo‘lidagi o‘z-o‘zini o‘zgartirish jarayoni, Arastuda esa voqelikka xolis baho berish va to‘g‘ri xulosa chiqarish layoqatini tarbiyalash sifatida tushunilgan (1, 11-b.). Demak, ta’lim bu davrdayoq tor ma’nodagi bilim berish emas, balki shaxsni yaxlit madaniyatga va fuqarolik hayotiga olib kirish sifatida anglangan. Ta’lim “jamoat ishi”mi yoki “xususiy ish”mi, degan qadimiy bahs esa bugun davlat, nodavlat sektor va xususiy kapital munosabatlari ko‘rinishida yangicha mazmun kasb etmoqda. Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Hojib va Nizomulmulk merosida ham ta’lim ijtimoiy tartibni oqilona tashkil etish sharti sifatida namoyon bo‘ladi. Markaziy Osiyoning an’anaviy ta’lim tizimi esa faqat hukmdor xazinasiga emas, balki vaqf mulki daromadlariga ham tayangan; A.A.Egamberdiyev mamlakatimiz oliy ta’limining ildizlarini o‘rta asr madrasalaridan izlab, ular bilan bugungi universitetlar o‘rtasidagi vorisiylikni ko‘rsatadi (2, 13-b.).

Zamonaviy tasavvurlarning bevosita manbai Ma’rifatchilik falsafasidir. I.Kant 1784-yilda ma’rifatni insonning o‘z aybi bilan tushib qolgan voyaga yetmaganlik holatidan chiqishi, ya’ni o‘z aqlidan boshqalarning yo‘l-yo‘rig‘isiz foydalanishga jur’at etishi deb ta’riflagan (5). Bu bilan ta’limning vazifasi tayyor bilimni yetkazishdan mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirishga ko‘chdi. G.V.F.Gegel dialektikasida esa rivojlanish eskining oddiy inkori emas, balki undagi ijobiy unsurlarni saqlagan holda yuqoriroq sifat darajasiga ko‘tarish — “olib tashlash” (Aufhebung) sifatida tushuniladi (6). Ushbu tamoyil an’ana va yangilanish o‘rtasidagi munosabatni tushunish uchun asosiy falsafiy kalit bo‘lib xizmat qiladi.

XX asrning 1950–1960-yillarida modernizatsiya mustaqil ilmiy nazariya sifatida shakllandi. Sh.N.Eyzenshtadt uni an’anaviy agrar jamiyatdan zamonaviy industrial, so‘ngra postindustrial jamiyatga o‘tish sifatida ta’riflagan (7; 1, 13-b.). T.Parsons zamonaviy jamiyatlarni funksional differensiatsiya, universal me’yorlar va erishilgan maqomga tayanuvchi tizim deb tavsiflagan (8). A.Inkeles va D.Smit olti rivojlanayotgan mamlakatda o‘tkazgan empirik tadqiqotlari asosida maktabni shaxsni “zamonaviy inson”ga aylantiruvchi eng ta’sirchan institut sifatida ko‘rsatdilar (9). T.Shults ilgari surgan inson kapitali g‘oyasi esa ta’limga xarajat emas, balki iqtisodiy samara beruvchi investitsiya sifatida qarash tamoyilini mustahkamladi (10).

1970-yillarda klassik nazariya tanqidiy yo‘nalishdagi tadqiqotlar bilan to‘qnash keldi. P.Burdye va J.-K.Passeron ta’lim tizimi madaniy kapitalni teng taqsimlamay, hukmron qatlamlar ustunligini qayta ishlab chiqarishini (11), S.Boulz va G.Gintis esa maktab tuzilmasi mehnat bozoridagi ierarxiyani takrorlashini asosladilar (12). XX asr oxirida Sh.N.Eyzenshtadtning o‘zi “ko‘p modernlik” konsepsiyasini taklif etib, zamonaviylik yagona G‘arb namunasida emas, balki har bir sivilizatsiyaning madaniy an’analari bilan o‘zaro ta’sirda turlicha shakllanishini ko‘rsatdi (13). Ye.S.Ageyeva ta’limni jamiyatni yangilovchi omil va ayni paytda o‘zi ham yangilanishga muhtoj institut sifatida ikki tomonlama ko‘rib, Boloniya andozalari kabi tashqi namunalarni tanqidiy saralashsiz ko‘chirishni xavfli deb hisoblaydi (14).

Modernizatsiyaning falsafiy qayta talqini Yu.Xabermas, E.Giddens va U.Bek asarlarida chuqurlashdi. Yu.Xabermas zamonaviylikni tugallanmagan loyiha deb atab, uning asosiy muammosini instrumental aqlning kommunikativ aqlni siqib chiqarishida ko‘rdi (15). E.Giddens va U.Bek hozirgi bosqichni refleksiv modernizatsiya deb tavsifladilar: jamiyat o‘zi yaratgan xavf-xatarlarga duch kelib, o‘z institutlarini doimiy ravishda qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘ladi (16; 17). N.A.Mixalchenkova global raqobatga moslashmoqchi bo‘lgan davlatlar ta’limni bozor xizmati deb biluvchi neoliberal mantiq bilan uni oliy ijtimoiy qadriyat sifatida ko‘ruvchi jamoatchilik kutilmalari o‘rtasidagi to‘qnashuvni yumshatish vazifasiga duch kelishini (18, c. 21), bunday sharoitda ikkilamchi modernizatsiya osonlikcha “vesternizatsiya”ga aylanib ketishi mumkinligini qayd etadi (18, c. 39). YuNESKOning 2015-yilgi ma’ruzasida esa ta’limga “jamoat ne’mati” doirasidan kengroq — davlatga ham, bozorga ham, alohida shaxsga ham tegishli bo‘lmagan, jamiyat a’zolarining birgalikdagi ishtiroki va mas’uliyati bilan yaratiladigan “umumiy ne’mat” sifatida qarash taklif etildi (19).

Milliy tadqiqotlarda ham bir necha yo‘nalish shakllangan. N.S.Jumaniyazova modernizatsiyani tizimning ichki yangilanishidan tug‘iladigan, qaytmas va progressiv jarayon deb ta’riflaydi (1, 13-b.); A.A.Egamberdiyev oliy ta’limdagi transformatsiyani raqamlashuvni ham, institutlar va qadriyatlar

yangilanishini ham qamrab olgan keng ko‘lamli jarayon sifatida o‘rganadi (2, 5–6-b.). Yu.M.Namazova milliy dunyoviy oliy maktab g‘oyasi Behbudiy, Fitrat, Munavvar qori, Avloniy kabi jadidlar faoliyatida shakllanib, 1918-yilda O‘rta Osiyo universiteti ochilishiga zamin hozirlaganini ko‘rsatgan (20, 16-b.). Shunga qaramay, ko‘rib chiqilgan nazariyalarni modernizatsiya tushunchasi talqinlarining yaxlit tipologiyasiga keltirish va undan ta’lim modernizatsiyasining ko‘p subyektli ta’rifini chiqarish masalasi hali alohida falsafiy tahlilni talab etadi.

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqotda ta’lim modernizatsiyasi tushunchasining genezisi va talqinlarini yoritish uchun quyidagi falsafiy-metodologik yondashuv va metodlardan foydalanildi:

• tarixiy-falsafiy tahlil — ta’limni yangilash g‘oyasining antik davrdan hozirgi kungacha bo‘lgan shakllanishini izchil kuzatish;
• etimologik va kategorial tahlil — “modernizatsiya”ni “islohot”, “innovatsiya” va “transformatsiya” tushunchalaridan farqlash;
• qiyosiy-tipologik tahlil — modernizatsiyaning klassik va zamonaviy talqinlarini umumiy mezonlar asosida solishtirib, tasniflash;
• dialektik metod — an’ana va yangilanish, global va milliy, davlat va jamiyat tashabbusi o‘rtasidagi ziddiyat hamda uyg‘unlikni aniqlash;
• germenevtik talqin — har bir nazariy an’ana matnlarini o‘z tarixiy-intellektual konteksti doirasida izohlash;
• tizimli tahlil — ta’lim modernizatsiyasini o‘zaro bog‘liq darajalar va subyektlar majmuasi sifatida ko‘rib chiqish.

Tahlil ikki bosqichda olib borildi. Avval har bir talqin o‘z ichki mantig‘i doirasida, uni yaratgan tarixiy vaziyat bilan bog‘liq holda tavsiflandi. So‘ngra talqinlar bir-biri bilan qiyoslanib, ularning qaysi biri modernizatsiya hodisasining qaysi qirrasini yoritishi va qaysi qirrasini soyada qoldirishi aniqlandi.

Qiyoslashning bir xil asosda olib borilishini ta’minlash uchun har bir talqin to‘rt mezon bo‘yicha baholandi: zamonaviylik namunasining manbai (yagona universal namuna yoki ko‘p shakllilik); modernizatsiyaning subyekti (davlat, jamiyat yoki ularning uyg‘unligi); ta’limga yuklanadigan asosiy vazifa (iqtisodiy, ijtimoiy-adolat, madaniy-o‘zlik yoki kommunikativ-qadriyatiy); an’anaga munosabat (inkor, saqlash yoki dialektik “ko‘tarib o‘tish”). Ushbu mezonlar turli falsafiy an’analarga mansub matnlarni yagona mantiqiy tizimda solishtirish va tahlilning subyektivligini kamaytirish imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlil, avvalo, tushunchaning kategorial chegaralarini aniqlashga imkon berdi. “Islohot” davlat tomonidan muayyan sohada amalga oshiriladigan maqsadli o‘zgarishlar majmui bo‘lib, asosan boshqaruv harakatini ifodalaydi; “innovatsiya” aniq bir yangi g‘oya, texnologiya yoki usulni joriy etishni bildiradi; “transformatsiya” esa tizimning tub va ko‘pincha oldindan to‘liq bashorat qilib bo‘lmaydigan sifat o‘zgarishidir. Modernizatsiya bu tushunchalarning barchasini qamrab oladi, ammo ularning birortasiga teng emas: islohot — vosita, innovatsiya — element, transformatsiya — natija bo‘lsa, modernizatsiya ularni jamiyatni yangi tarixiy sifat holatiga o‘tkazish maqsadi atrofida birlashtiruvchi jarayon va yo‘nalishdir.

Genezis tahlili asosida ta’lim modernizatsiyasi tushunchasining oltita asosiy talqinini ajratish mumkin:

• ma’rifatchilik-dialektik talqin;
• klassik (universalistik) talqin;
• tanqidiy-reproduktiv talqin;
• “ko‘p modernlik” (sivilizatsion-madaniy) talqin;
• refleksiv-kommunikativ talqin;
• milliy-tarixiy talqin.

Ma’rifatchilik-dialektik talqin (5; 6) modernizatsiyaning g‘oyaviy o‘zagini shakllantirdi. Unda ta’limning maqsadi aqliy jihatdan mustaqil, avtonom shaxsni tarbiyalash, uning tashkiliy asosi esa davlat kafolatlaydigan umumiy ne’mat sifatida belgilandi. Ayni davrda xususiy maktablar, xayriya jamiyatlari ta’sis etgan o‘quv yurtlari kabi ko‘plab ta’lim shakllari fuqarolarning o‘z tashabbusi bilan vujudga kelgani modernizatsiya tarixan faqat “yuqoridan” emas, “quyidan” ham kechganini ko‘rsatadi. Gegelning Aufhebung tamoyili esa haqiqiy modernizatsiya milliy ta’lim an’analarini inkor etmasligini, balki ularning hayotiy unsurlarini yangi sifat holatida davom ettirishini asoslaydi. Bu talqinning kuchli tomoni —

modernizatsiyaga insonparvarlik va dialektik vorisiylik mezonini berishi; cheklovi esa uning ijtimoiy-institutsional mexanizmlarni emas, asosan g‘oyaviy-normativ ufqni belgilashidir.

Klassik (universalistik) talqin (7; 8; 9; 10) modernizatsiyani “qoloqlik”dan “zamonaviylik”ka bir chiziqli o‘tish sifatida tushunadi va ta’limga bu o‘tishning asosiy dvigateli rolini yuklaydi: maktab yangi tajribaga ochiqlik, rejalashtirish, ilm-fanga ishonch kabi sifatlarni shakllantiradi, inson kapitaliga yo‘naltirilgan xarajat esa iqtisodiy samara beruvchi investitsiyaga aylanadi. Talqinning kuchli tomoni shundaki, u ta’limning jamiyat taraqqiyotidagi obyektiv zarurligini empirik jihatdan asosladi; aynan investitsiya tamoyili keyinchalik ta’limga xususiy mablag‘ jalb etish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini nazariy jihatdan oqlashning poydevoriga aylandi. Uning asosiy cheklovi — G‘arb jamiyatlarini barcha uchun yagona namuna deb bilib, modernizatsiyani amalda vesternizatsiya bilan tenglashtirishi hamda ta’limning ijtimoiy tengsizlikni qayta ishlab chiqarish imkoniyatini e’tibordan chetda qoldirishidir.

Tanqidiy-reproduktiv talqin (11; 12) klassik nazariyaning ana shu ikkinchi zaif nuqtasiga qaratilgan. Uning nazarida ta’lim betaraf modernizatsiya vositasi emas: u madaniy kapitalni notekis taqsimlaydi, maktab tuzilmasi esa mehnat bozoridagi ierarxiyani takrorlaydi. Bu talqinning ilmiy ahamiyati shundaki, u ta’lim modernizatsiyasini faqat texnik-iqtisodiy samaradorlik bilan o‘lchashning cheklanganligini ko‘rsatib, nazariyaga ijtimoiy adolat mezonini olib kirdi. Cheklovi esa ta’limning integrativ va ijobiy o‘zgartiruvchi salohiyatini kamsitish xavfi hamda yangilanishning konstruktiv dasturini taklif etmasligidir. O‘zbekiston uchun bu talqin, ayniqsa, nodavlat ta’lim xizmatlari kengayayotgan sharoitda ta’lim imkoniyatlarining daromad va yashash joyiga ko‘ra tabaqalanib ketishi xavfini oldindan ko‘rish nuqtai nazaridan muhimdir.

“Ko‘p modernlik” talqini (13; 14) modernizatsiyaning yagona namunasi g‘oyasidan voz kechadi: zamonaviylik har bir sivilizatsiyaning tarixiy-madaniy merosi bilan o‘zaro ta’sirda turlicha shakl oladi. Ushbu talqin ta’lim modernizatsiyasi uchun muhim metodologik xulosaga olib keladi — xorijiy ta’lim modellarini mexanik ko‘chirish emas, balki ularni milliy madaniyat, mentalitet va ijtimoiy institutlar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Uning kuchli tomoni milliy o‘ziga xoslikni modernizatsiyaning qonuniy omili sifatida tan olishida bo‘lsa, cheklovi madaniy o‘ziga xoslikni mutlaqlashtirish orqali global ta’lim makoniga integratsiyalashuv zaruratini zaiflashtirib qo‘yish ehtimolida ko‘rinadi.

Refleksiv-kommunikativ talqin (15; 16; 17) zamonaviylikni yakunlangan holat emas, balki doimiy o‘z-o‘zini qayta ko‘rib chiqish jarayoni sifatida tushunadi. Yu.Xabermas nuqtai nazaridan ta’limni faqat bozor talab qiladigan malakalarni tayyorlash vositasiga aylantirish uning kommunikativ va qadriyatiy vazifalarini zaiflashtiradi. Refleksiv modernizatsiya sharoitida esa ta’lim tizimi bir martalik islohot bilan cheklanib qolmay, o‘zgaruvchan sharoitga doimiy moslashuvchi, o‘z-o‘zini baholovchi ochiq tizimga aylanishi lozim. Bu talqinning kuchli tomoni — modernizatsiyani uzluksiz jarayon sifatida asoslashi va ta’limning insonparvarlik mohiyatini instrumental yondashuvdan himoya qilishi; cheklovi — uning yuqori darajadagi abstraktligi, aniq institutsional yechimlar va subyektlar o‘rtasidagi mas’uliyat taqsimotini to‘liq ochib bermasligidir.

Milliy-tarixiy talqin (1; 2; 20) modernizatsiyani mahalliy tarixiy tajriba va postsovet o‘tish davri muammolari prizmasida ko‘radi. Uning muhim tayanchi — jadidlar merosi. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida Turkistonda paydo bo‘lgan “usuli jadid” maktablari diniy va dunyoviy bilimlarni uyg‘unlashtirgan, yangi o‘qitish usullarini joriy etgan ta’lim modernizatsiyasining milliy shakli edi. Bu maktablarning ko‘pchiligi mustamlaka ma’muriyati emas, balki ma’rifatparvarlar, savdogarlar va xayriyachilar mablag‘i hamda tashabbusi bilan ochilgani ularni o‘z davrining o‘ziga xos “nodavlat ta’lim sektori” deb baholash imkonini beradi. Sovet davrida esa modernizatsiya qat’iy davlat-markazlashgan yo‘ldan borib, savodsizlikni tugatish va ommaviy ta’limni yaratish kabi yirik natijalarga erishdi, biroq jadid maktablari va vaqf tizimi tugatilib, ta’lim to‘liq davlat monopoliyasiga aylantirildi. Mustaqillik davridagi qonunchilik ta’lim muassasalarining nodavlat shakllarini e’tirof etgan bo‘lsa-da, institutsional nazariyada “izdan bog‘liqlik” (path dependence) deb ataluvchi hodisa — “ta’lim faqat davlat ishi” degan tasavvur, boshqaruv odatlari va nodavlat sektorga ishonchsizlik — o‘zgarishlarni uzoq vaqt sekinlashtirdi. Talqinning kuchli tomoni modernizatsiyaning milliy-madaniy ildizlarini ochib berishida, cheklovi esa mavjud milliy tadqiqotlarda modernizatsiyaning asosan davlat siyosati va muassasalar ichidagi o‘zgarishlar orqali tahlil qilinib, uning subyektlar tarkibi masalasi chetda qolganidadir.

Talqinlar qiyosi modernizatsiya turlarini farqlashning nazariy ahamiyatini ham ko‘rsatadi. Birlamchi (organik, endogen) modernizatsiya G‘arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada jamiyatning ichki rivoji natijasida asta-sekin kechgan, ommaviy ta’lim tizimi ham jamiyatning o‘zida yetilgan ehtiyojlar asosida shakllangan. Ikkilamchi (noorganik, ekzogen) modernizatsiya esa tashqi namunalarni o‘zlashtirish orqali, ko‘pincha qisqa muddatda va davlat tashabbusi bilan amalga oshiriladi. A.A.Egamberdiyev S.Xantingtonning kuzatishiga tayanib, modernizatorlarning birinchi avlodi odatda G‘arbda tahsil olib, uning qadriyatlarini o‘zlashtirgani, keyingi avlodlar esa vatanida ochilgan universitetlarda o‘qib, milliy qadriyatlarga ko‘proq suyanganini qayd etadi (2, 10-b.). Bundan kelib chiqadiki, ikkilamchi modernizatsiyada ta’lim ikki yoqlama rol o‘ynaydi: u global bilim va qadriyatlarni olib kiruvchi kanal hamda milliy o‘zlikni saqlovchi va qayta ishlab chiqaruvchi institutdir.

Modernizatsiya, shuningdek, “yuqoridan” — davlat tashabbusi bilan va “quyidan” — jamiyat, tadbirkorlar va fuqarolik institutlari tashabbusi bilan kechishi mumkin. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, faqat “yuqoridan” boshlangan yangilanish jamiyatda yetarli ijtimoiy tayanch topmasa sustlashadi, faqat “quyidan” kelayotgan o‘zgarishlar esa davlat tomonidan institutsional qo‘llab-quvvatlanmasa tarqoq va beqaror bo‘lib qoladi. Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan bu ziddiyat modernizatsiyaning legitimligi masalasidir: “yuqoridan” kelgan yangilik ijtimoiy ongda qabul qilingandagina barqaror institutga aylanadi. Shu sababli istiqbolli shakl — davlat va jamiyat tashabbusining uyg‘unligiga asoslangan “aralash” model bo‘lib, jadid maktablari tajribasi aynan shunday uyg‘unlikning tarixiy namunasi hisoblanadi.

Tahlil ta’lim modernizatsiyasining ijtimoiy-falsafiy mazmunini to‘rtta o‘zaro bog‘liq darajada ko‘rib chiqish imkonini beradi. Birinchisi — qadriyat-maqsad darajasi, ya’ni ta’limdan qanday inson va fuqaro kutilishi haqidagi tasavvurlarning yangilanishi. Ikkinchisi — institutsional daraja, ya’ni ta’limni tashkil etish, moliyalashtirish va boshqarish qoidalari hamda ishtirokchilar o‘rtasidagi vakolatlar taqsimotining o‘zgarishi. Uchinchisi — mazmun-texnologik daraja, ya’ni o‘quv dasturlari, o‘qitish usullari va raqamli texnologiyalarning yangilanishi. To‘rtinchisi — subyekt darajasi, ya’ni modernizatsiyani amalga oshiruvchi va undan manfaatdor ijtimoiy kuchlar — davlat, ta’lim muassasalari, oila, biznes, fuqarolik jamiyati institutlari tarkibining kengayishi. Ilmiy adabiyotlarda dastlabki uch daraja nisbatan keng o‘rganilgan, to‘rtinchisi esa yetarlicha tahlil qilinmagan. Holbuki, aynan subyektlar tarkibining o‘zgarishi — ta’limning yagona davlat monopoliyasidan ko‘p subyektli tizimga o‘tishi — hozirgi bosqich modernizatsiyasining eng muhim sifat belgilaridan biridir, chunki u kim qaror qabul qilishi va kim javobgar bo‘lishini, ya’ni ta’limdagi ijtimoiy munosabatlarning o‘zini o‘zgartiradi.

Shundan kelib chiqib, ta’lim modernizatsiyasining ikki modeli farqlanadi. Davlat-markazlashgan (etatistik) modelda modernizatsiyaning maqsadi, mazmuni va resurslari to‘liq davlat tomonidan belgilanadi, boshqa subyektlar ijrochi vazifasini bajaradi; bu model resurslarni tez jamlashda samarali, biroq tashabbus, raqobat va moslashuvchanlikni cheklaydi. Sheriklikka asoslangan (polisubyekt) modelda esa davlat strategik yo‘nalish, sifat standarti va ijtimoiy kafolatlarni belgilaydi, nodavlat sektor va xususiy kapital resurs, innovatsiya va boshqaruv tajribasini olib kiradi. Ikkinchi model tizimning moslashuvchanligini oshiradi, ammo tijoratlashuv va ijtimoiy tengsizlik kuchayishi xavfini ham o‘zida saqlaydi; shu bois uning adolat, mas’uliyat va ishonch tamoyillari aniq belgilanishi zarur.

Dialektik nuqtai nazardan modernizatsiya bir qator o‘zaro bog‘liq ziddiyatlarning yuzaga kelishi va yechilishi orqali kechadi. Tahlil ularning beshta asosiy juftligini ajratish imkonini berdi: markazlashuv va markazsizlashuv (ta’lim siyosatining yaxlitligi va muassasalar, hududlar hamda nodavlat subyektlar mustaqilligi); unifikatsiya va variativlik (yagona davlat standartlari va shakllar hamda dasturlar xilma-xilligiga talab); davlat kafolatlari va bozor erkinligi; global va milliy; miqdor va sifat (qamrovni tez kengaytirish va buning uchun zarur kadr hamda institutsional resurslarning yetishmasligi). N.A.Mixalchenkova ham oliy ta’lim globallashuvining obyektiv ehtiyojlari bilan jamiyatning ijtimoiy so‘rovlari o‘rtasidagi bazaviy ziddiyatlarni qayd etadi (18, c. 26). Bu ziddiyatlarning har biri ta’lim tizimida yangi subyektlarning paydo bo‘lishi bilan bevosita bog‘liq: nodavlat tashkilotlar variativlik va raqobatni kuchaytiradi, biroq ular faoliyatining ijtimoiy samarasi davlat o‘rnatadigan sifat va adolat qoidalariga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Muhokamaning markaziy nuqtasi shundaki, talqinlar evolyutsiyasi oxir-oqibat bitta asosiy ziddiyatga — ta’limning bozor xizmati va ijtimoiy qadriyat sifatidagi ikki tabiati o‘rtasidagi ziddiyatga olib keladi. Klassik talqin ta’limning investitsion tabiatini, tanqidiy talqin uning adolat bilan bog‘liq jihatini, refleksiv-kommunikativ talqin esa qadriyatiy mazmunini birinchi o‘ringa chiqaradi. YuNESKOning

“umumiy ne’mat” konsepsiyasi (19) bu ziddiyatni yechishning falsafiy kalitini taklif etadi: nodavlat sektor va xususiy kapitalning ta’limdagi ishtiroki o‘z-o‘zidan xususiylashtirishni anglatmaydi, hal qiluvchi masala esa bu ishtirok qanday qadriyatlar, qoidalar va mas’uliyat taqsimotiga tayanishidadir. Gegel tilida aytganda, sheriklik davlat-markazlashgan va bozor modellarini inkor etmaydi, balki ularning ijobiy jihatlarini yangi sifat darajasida “ko‘tarib o‘tadi”. O‘zbekistonda 2017-yildan keyingi me’yoriy hujjatlarda davlat tobora yagona ijrochi emas, balki strategik tartibga soluvchi va sheriklik qoidalarini shakllantiruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘layotgani “davlat tomonidan amalga oshiriladigan modernizatsiya”dan “davlat ishtirokidagi va davlat tomonidan muvofiqlashtiriladigan modernizatsiya”ga o‘tish boshlanganini ko‘rsatadi, biroq nodavlat sektor ulushining hanuz kichikligi bu o‘tish tugallanmaganidan dalolat beradi.

Ko‘rib chiqilgan talqinlarni umumlashtirib, ta’lim modernizatsiyasining quyidagi muallifona ta’rifini taklif etamiz: ta’lim modernizatsiyasi — ta’lim tizimining qadriyat-maqsadlari, institutsional tuzilmasi, mazmuni va subyektlar tarkibini jamiyatning yangi tarixiy ehtiyojlari, global raqobat talablari va milliy madaniy an’analar uyg‘unligi asosida yangilashga qaratilgan yaxlit, ko‘p subyektli va uzluksiz ijtimoiy jarayon. Ta’rifning har bir unsuri muayyan talqindan meros oladi: “yaxlit” belgisi tushunchaning islohot, innovatsiya va transformatsiyaga nisbatan kengligini, “uzluksiz” belgisi refleksiv modernizatsiya g‘oyasini, “global raqobat talablari va milliy madaniy an’analar uyg‘unligi” esa klassik va “ko‘p modernlik” talqinlarining dialektik sintezini ifodalaydi. Ta’rifning yangiligi shundaki, unda modernizatsiya faqat davlat tomonidan amalga oshiriladigan islohot sifatida emas, balki davlat, nodavlat sektor va xususiy kapital ishtirokida kechadigan ko‘p subyektli jarayon sifatida talqin etiladi. Bunday tushunish modernizatsiya natijalarini miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki sifat, ochiqlik va qamrov, adolat, samaradorlik, moslashuvchanlik va milliy o‘zlik kabi ijtimoiy-sifat mezonlari asosida baholashni taqozo etadi.

Tadqiqotning ayrim cheklovlarini ham qayd etish lozim. Tahlil nazariy-falsafiy xarakterga ega bo‘lib, taklif etilgan tipologiya va ta’rifning O‘zbekiston ta’lim tizimi amaliyotidagi empirik tasdig‘i alohida tadqiqot predmetidir. Shuningdek, antik va Sharq mutafakkirlari merosi asosan modernizatsiya g‘oyasining tarixiy zamini sifatida ko‘rib chiqildi, ularning ta’lim institutiga oid qarashlari maxsus tahlil qilinmadi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida ta’lim modernizatsiyasi tushunchasining falsafiy genezisi antik va Sharq tafakkuri, Ma’rifatchilik va Gegel dialektikasi, XX asr modernizatsiya nazariyalari hamda jadidlar merosi orqali kuzatildi va tushunchaning oltita asosiy talqini — ma’rifatchilik-dialektik, klassik (universalistik), tanqidiy-reproduktiv, “ko‘p modernlik”, refleksiv-kommunikativ va milliy-tarixiy talqinlar — ajratilib, ularning mohiyati, kuchli tomonlari va cheklovlari aniqlandi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, modernizatsiya nazariyalari yagona universal namunaga asoslangan klassik yondashuvdan “ko‘p modernlik” va refleksiv modernizatsiya konsepsiyalariga qarab rivojlanib, nazariyaga milliy o‘ziga xoslik va ijtimoiy adolat mezonlarini olib kirdi. Hozirgi bosqichda ta’lim modernizatsiyasining markaziy ziddiyati ta’limning bozor xizmati va ijtimoiy qadriyat sifatidagi ikki tabiati o‘rtasida yuzaga keladi, uni hal etishning istiqbolli institutsional shakli esa nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklikka asoslangan polisubyekt modeldir. Shu asosda ta’lim modernizatsiyasi yaxlit, ko‘p subyektli va uzluksiz ijtimoiy jarayon sifatida ta’riflandi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagilar tavsiya etiladi: ta’lim modernizatsiyasi konsepsiyalari va dasturlarini ishlab chiqishda tushunchani islohot yoki alohida innovatsiyalar bilan tenglashtirmasdan, uning qadriyat-maqsad, institutsional, mazmun-texnologik va subyekt darajalarini birgalikda hisobga olish; xorijiy ta’lim modellarini mexanik ko‘chirish o‘rniga ularni milliy madaniy an’analar bilan uyg‘unlashtirish; jadid maktablari tajribasini davlat va jamiyat tashabbuslari uyg‘unligining milliy namunasi sifatida ta’lim siyosati va ta’lim falsafasi o‘quv kurslarida keng yoritish; nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklikni modernizatsiyaning yordamchi vositasi emas, balki uning tizim tashkil etuvchi subyektlari sifatida qarash.

Kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida ta’lim modernizatsiyasini baholash mezonlari tizimini asoslash va ta’lim tizimini ijtimoiy institut sifatida tadqiq etishning falsafiy-metodologik asoslarini belgilash ko‘rsatilishi mumkin. Bu, o‘z navbatida, dissertatsion tadqiqotning keyingi boblarida ta’limda nodavlat sektor va davlat-xususiy sheriklikning ijtimoiy-falsafiy konsepsiyasini shakllantirish uchun nazariy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Жуманиязова, Н.С. Ўзбекистон олий таълим тизими модернизациялашувининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2022.
2. Эгамбердиев, А.А. Ўзбекистонда олий таълим тизими трансформациясининг ижтимоий-фалсафий таҳлили: фалсафа фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. – Андижон, 2022.
3. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрдаги “Таълим тўғрисида”ги ЎРҚ-637-сон Қонуни // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz).
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 сентябрдаги “Нодавлат таълим хизматлари кўрсатиш фаолиятини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-3276-сон қарори ва унга шарҳ // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси (www.lex.uz).
5. Kant, I. Beantwortung der Frage: Was ist Aufklärung? // Berlinische Monatsschrift. 1784. Dezember. S. 481–494.
6. Гегель, Г.В.Ф. Наука логики: в 3 т. Т. 1. М.: Мысль, 1970.
7. Eisenstadt, S. N. Modernization: Protest and Change. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1966.
8. Parsons, T. The System of Modern Societies. Englewood Cliffs: Prentice-Hall, 1971.
9. Inkeles, A., Smith, D. H. Becoming Modern: Individual Change in Six Developing Countries. Cambridge (Mass.): Harvard University Press, 1974.
10. Schultz, T. W. Investment in Human Capital // American Economic Review. 1961. Vol. 51, No. 1. P. 1–17.
11. Bourdieu, P., Passeron, J.-C. La reproduction: éléments pour une théorie du système d’enseignement. Paris: Éditions de Minuit, 1970.
12. Bowles, S., Gintis, H. Schooling in Capitalist America: Educational Reform and the Contradictions of Economic Life. New York: Basic Books, 1976.
13. Eisenstadt, S. N. Multiple Modernities // Daedalus. 2000. Vol. 129, No. 1. P. 1–29.
14. Агеева, Е.С. Институт образования как фактор модернизации российского общества: социально-философский анализ: дис. … канд. филос. наук: 09.00.11. – М., 2011. – 170 с.
15. Habermas, J. Der philosophische Diskurs der Moderne: Zwölf Vorlesungen. Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1985.
16. Giddens, A. The Consequences of Modernity. Stanford: Stanford University Press, 1990.
17. Beck, U. Risikogesellschaft: Auf dem Weg in eine andere Moderne. Frankfurt am Main: Suhrkamp, 1986.
18. Михальченкова, Н.А. Политические детерминанты государственной политики в сфере высшего образования: соотношение глобального и национального: дис. … д-ра полит. наук: 23.00.02. – СПб., 2017.
19. UNESCO. Rethinking Education: Towards a global common good? Paris: UNESCO, 2015. ISBN 978-92-3-100088-1.
20. Намазова, Ю.М. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонда таълим фалсафаси: фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2020.